

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

## HOSHIMJON RAZZOQOVNING IJOD QIRRALARI

Mohinur Abduxakimova Ahmadjon qizi

ADU o'qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15290794>

**Annotatsiya:** Xalqimizning milliy o'zligi va ma'naviy ildizlarining asosi bo'lgan xalq og'zaki ijodi na'munalarini o'rganish, ushbu nomoddiy madaniy merosimizni avaylash va ularning inson ma'naviy kamolotidagi o'rnini ochib berish folklorshunoslarimiz oldida turgan dolzab masalalardan biri hisoblanadi. Ana shuning uchun bu yo'lda juda ko'plab zahmatkash olimlarimizning mehnati singan.

Ana shunday adabiyotshunos olimlar haqida umumiy planda o'rganilgan bo'lsa-da, alohida olimlar faoliyatini o'rganish adabiyotshunoslik kun tartibida turibdi. Jumladan, adabiyotshunoslikda chuqur ilmga ega bo'lgan, nainki Respublikamiz, balki xalqaro miqyosda e'tirof qozongan olim, Hoshimjon Razzoqov ilmiy merosini maxsus o'rganish masalasi ustuvor vazifalardandir.

Shu jihatdan, Hoshimjon Razzoqov ilmiy merosining nazariy va amaliy ahamiyati hamda Andijon adabiy muhitini o'rganishdagi ilmiy yondashuv mezonlarini tahlil etish, olim yaratgan ilmiy izlanishlarning milliy adabiyotshunoslik rivojida tutgan o'rne va rolini aniqlash soha oldida turgan dolzarb masalalardandir.

Serqirra ijodkor, adabiyotshunos olim, shoir, yozuvchi, dramaturg Hoshimjon Razzoqov 1916-yilda Andijon viloyatining Shahrixon tumanida tavallud topgan. Bolaligidan adabiyotga mehr berib, xalq ijodiyoti namunalarini, S.Sheroziy, A.Navoiy, Mashrab, Oybek asarlarini o'qib ulg'ayadi.

Olim o'zbek xalq dostonlarining poetikasi, variantlari va lokal xususiyatlari, dostonchilik ananalarining saqlanishi va etakchi baxshilarining badiiy mahorati, dostonlarda turkumlilik, bolalar folklorining o'ziga xos tabiati va janrlar tarkibi, mehnat qo'shiqlarining badiiyati, mifologiya va boshqa mavzularda yirik tadqiqotlarni yaratdi.

**Kalit so'zlar:** adabiyotshunos, olim, folklorshunos, folklor, serqirra ijodkor, publisist, dramaturg, aruz vazni.

**Аннотация:** Изучение образцов народного устного творчества, составляющих основу национальной самобытности и духовных корней нашего народа, сохранение этого нематериального культурного наследия и раскрытие его места в духовной зрелости человека являются одной из наиболее актуальных задач, стоящих перед нашими фольклористами. Именно поэтому на этом пути была сломана работа многих наших трудолюбивых ученых.

Хотя такие литературоведы изучены в целом, изучение деятельности отдельных ученых стоит на повестке дня литературоведения. В частности, одной из приоритетных задач является специальное изучение научного наследия Хашиmdжона Раззакова – ученого, обладающего глубокими познаниями в области литературоведения и получившего признание не только в нашей стране, но и за рубежом.

В связи с этим, анализируя теоретическую и практическую значимость научного наследия Хашиmdжона Раззакова и критерии научного подхода к изучению литературной среды Андижана, определяя место и роль научных исследований, созданных ученым, в

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

развитии отечественной литературы. Литературоведение является актуальной проблемой, стоящей перед этой областью.

Выдающийся творец, литературовед, поэт, писатель, драматург Хашиμόджон Раззоков родился в 1916 году в Шахриханском районе Андижанской области. С детства он любил литературу и рос, читая образцы народного творчества, произведения С. Шерози, А. Навои, Машираба, Ойбека.

Ученый создал масштабные исследования по поэтике, вариантам и местным особенностям узбекского народного эпоса, сохранению эпических традиций и художественного мастерства ведущих поэтов, серий в былинах, уникальности и жанровому составу детского фольклора, художественности трудовых песен, мифологии и других тем.

**Ключевые слова:** литературный критик, учёный, фольклорист, фольклорист, творческий художник, публицист, драматург, Аруз.

**Annotation:** Studying the examples of folk oral creativity, which are the basis of the national identity and spiritual roots of our people, preserving this intangible cultural heritage and revealing their place in human spiritual maturity are among the most pressing issues facing our folklorists. is one. That is why the work of many of our hard-working scientists was broken on this road.

Although such literary scientists have been studied in general, studying the activities of individual scientists is on the agenda of literary studies. In particular, one of the priority tasks is the special study of the scientific heritage of Hashimjon Razzakov, a scientist who has deep knowledge in literary studies and has gained recognition not only in our country, but internationally.

In this regard, analyzing the theoretical and practical significance of the scientific heritage of Hashimjon Razzakov and the criteria of the scientific approach to the study of Andijan's literary environment, determining the place and role of the scientific researches created by the scientist in the development of national literary studies are urgent issues facing the field.

The outstanding creator, literary scholar, poet, writer, dramatist Hashimjon Razzakov was born in 1916 in Shahrikhan district of Andijan region. Since childhood, he loved literature and grew up reading examples of folk art, works of S. Sherozi, A. Navoi, Mashrab, Oibek.

The scientist created large-scale researches on the poetics, variants and local features of Uzbek folk epics, the preservation of epic traditions and the artistic skills of leading poets, series in epics, the unique nature and composition of genres of children's folklore, the artistry of labor songs, mythology and other topics.

**Keywords:** literary critic, scientist, folklorist, folklore, creative artist, publicist, dramatist, Aruz weight.

Xalqimiz badiiy salohiyatining asrlar davomidagi izchil taraqqiyoti natijasida xilma-xil janrlardan iborat og`zaki badiiy ijod durdonalari yaratilgan. Binobarin, o`zbek xalq ijodiyoti ajdodlarimizning ko`p asrlik badiiy tafakkur durdonalarini o`zida mujassamlashtirgan bebaho milliy qadriyatlardan tizimi sanaladi. Folklorshunoslik esa jonli og`zaki an`anada yaratilib, rivojlanib kelgan xalq og`zaki badiiy ijodi asarlarini arxivlashtirish, uning eng yaxshi namunalari nashr etish, ilmiy o`rganish va ommalashtirish bilan shug`ullanadi.

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Xalqimizning milliy o'zligi va ma'naviy ildizlarining asosi bo'lgan xalq og'zaki ijodi na'munalarini o'rganish, ushbu nomoddiy madaniy merosimizni avaylash va ularning inson ma'naviy kamolotidagi o'rnini ochib berish folklorshunoslarimiz oldida turgan dolzab masalalardan biri hisoblanadi. Ana shuning uchun bu yo`lda juda ko`plab zahmatkash olimlarimizning mehnati singan.

O'zbek folklori asarlarining to'planishi va yozib olinishi tarixi haqida so'z yuritilganda X asrda yashab ijod qilgan mashhur muarrix Abu Bakr ibn Jafar Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida shahar va qishloq nomlari, tarixiy obidalar hamda o'tmishda bo'lib o'tgan voqea-hodisalar haqidagi xalq rivoyatlari, afsonalari keltirilganligi; XII asrning buyuk olimi Mahmud Qoshg'ariy turkiy qavmlar diyorini kezib, maqol, matal, qo'shiqlar, rivoyat va afsona singari folklor janrlariga oid boy materiallarni yozib olib, “Devoni lug'ot ut-turk” asariga kiritganligini eslash kerak bo'ladi. Shuningdek, A.R.Beruniyning astromifologik qarashlari, M.Zamaxshariyning maqol va matallarni yozib to'plaganligi, N.B.Rabg'uziyning mif, afsona va rivoyatlarni “Qissai Rabg'uziy”ga jamlaganlanligi, A.Navoiyning o'zbek xalq shariyatining janrlar tarkibi xususida fikr yuritganligi, Z.M.Boburning o'zbek xalqining urf-odatlari, marosimlari, maqol va hikmatli so'zlari haqidagi qiziqarli faktlarni keltirganligi – bularning barchasi o'zbek folklori asarlarining ilk to'plovchilari edi.

XX asrning 20-30-yillarida V.A.Uspenskiy, N.N.Mironov, E.E.Romanovskaya, Yunus Rajabiy o'zbek musiqa folklori asarlarini yozib olishgan bo'lsa, G'.Zafariy, A.K.Borovkov, K.K.Yudaxin, M.F.Gavrilov o'zbek xalq og'zaki teatri an'alarini o'rgandilar. G'ozim olim Yunusov, Elbek, L.Potapov, V.G.Andreyev, A.Alaviy, Sh.Rizo, M.Alaviya, B.Karimiy va boshqalar o'zbek folklorining eng nodir asarlarini yozib olish maqsadida tashkil etilgan dastlabki folklor ekspeditsiyalarida faol qatnashdilar.

XX asrning 40-80-yillarida X.Zarifov, A.Alaviya, M.Afzalov, M.Toshpo'latova, Z.Xusainova, F.Karomatov, H.Razzoqov, T.G'oziboyev, J.Qobulniyozov, M.Jo'rayev, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, M.Murodov, O.Safarov, Sh.Turdimov o'zbek folklorshunoslari keng ko'lamlil folklor to'plash ishlari bilan mashg'ul bo'ldilar.

XX asrning 60-70-yillarida dostonchilik maktablari, baxshi-shoirilar epik repertuari, xalq dostonlarining variantlari va badiiyati (H.Zarifov, M.Afzalov, T.Mirzayev, A.Qahhorov, T.Ochilov), xalq qo'shiqlari (M.Alaviya), o'zbek folklorining tarixiy taraqqiyoti (J.Qobulniyozov, O.Sobirov, S.Asqarov), askiya, xalq

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O’RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

dramasi va qiziqchilik sanati (R.Muhammadiyev, H.Razzoqov, M.Qodirov), topishmoq (Z.Husainova), bolalar folklori (G`Jahongirov), latifa (F.Yo`ldoshev)ga bag`ishlangan yirik monografik tadqiqotlar yaratilgan.

Yuqoridagi zahmatkash olimlarimiz qatori Hoshimjon Razzoqov juda ko`p ilmiy ishlarni amalga oshirgan. Bu olimning qilgan ishlarini tahlil qilish biz yosh olimlar uchun ham o`rnak maktabi bo`lib xizmat qiladi.

Andijon bir necha asrlardan buyon fan va madaniyat o`chog`i bo`lgan. Bu yurtdan juda ko`plab buyuk davlat arboblari, buyuk ijod ahllari yetishib chiqqan.

Andijonda buyuk ijod maktabi ham bo`lib, uning asoschilari sifatida birinchi navbatda, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mohlaroyim Nodira, Abdulhamid Cho`lpon, Z.Habibiy, Oraziy, H.Razzoqov, Sayfiy, Anisiy, Sobir Abdulla, Komil Yashin, S.Zunnunova, T.Nizom, O.Xoldor va shu singari minglab ziyoli insonlarni tilga olishimiz mumkin. Ularni qoldirgan ma`naviy meroslarini o`qib-o`rganish, ularni tahlil va tadqiq qilishni har birimiz oldimizga ulkan maqsad qilib qo`ydik. Sababi, ular qoldirgan boy meros cheksiz bilim, aql-zakovat mevasidir.

Shoir va nosir Qamchibek Kenja “Andijon yozuvchilari va shoirlari” bayozi muqaddimasida Andijon adabiy muhiti haqida quyidagi fikrlarni bayon qiladi: “Andijon adabiy muhiti o`zbek adabiyoti rivojida o`ziga xos o`ringa, an`ana va salmoqqa ega. Hazrati Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur ning ijodiy kamoli va shon – shuhratini turkiy Andijon tili bilan bog`lab, faxrlangani ham bejiz emas edi. Man shu chashmadan suv ichib, Navoiydan so`ng “eng ko`p va ho`p” yozgan shoir maqomini olgan Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi o`zidan keyingi qalam ahli uchun ilhom bulog`i bo`lib xizmat qildi va xizmat qilib kelmoqda. Andijon”ijod bazmi” qiziyotgan o`lkalardan biridir.....”[2.25].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, adabiyotshunos olimlar haqida umumiy planda o`rganilgan bo`lsa-da, alohida olimlar faoliyatini o`rganish adabiyotshunoslik kun tartibida turibdi. Jumladan, adabiyotshunoslikda chuqur ilmga ega bo`lgan, nainki Respublikamiz, balki xalqaro miqyosda e`tirof qozongan olim, Hoshimjon Razzoqov ilmiy merosini maxsus o`rganish masalasi ustuvor vazifalardandir. Chunki “...o`zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o`rganish va targ`ib qilish, ko`pqirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog`liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish... katta ahamiyatga ega”[1.3].

Shu jihatdan, Hoshimjon Razzoqov ilmiy merosining nazariy va amaliy ahamiyati hamda Andijon adabiy muhitini o`rganishdagi ilmiy yondashuv mezonlarini tahlil

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O’RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

etish, olim yaratgan ilmiy izlanishlarning milliy adabiyotshunoslik rivojida tutgan o`rni va rolini aniqlash soha oldida turgan dolzarb masalalardandir.

Serqirra ijodkor, adabiyotshunos olim, shoir, yozuvchi, dramaturg Hoshimjon Razzoqov 1916-yilda Andijon viloyatining Shahrixon tumanida tavallud topgan. Bolaligidan adabiyotga mehr berib, xalq ijodiyoti namunalarini, S.Sheroziy, A.Navoiy, Mashrab, Oybek asarlarini o`qib ulg`ayadi.

Ayniqsa, Oybek asarlariga mehri boshqacha bo`lganligi uchun, yozuvchi bilan uchrashadi. Lekin Oybek o`zining ijodidan ko`ra, Muqimiy va Zavqiy ijodini o`rganishni maslahat beradi[3.72]. Shuning uchun Zavqiyning ilmiy va ijodiy faoliyatiga bag`ishlangan asarlarini to`plash va nashr etish ishlarini olib boradi. U haqda “Shoir Zavqiy hayoti va ijodi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini hamda Zavqiy haqidagi monografiyasini yozadi. Bundan tashqari, Zavqiyning “Tanlangan asarlar”ini chop ettiradi.

Adabiyotshunos olim sifatida aruz nazariyasi chuqur o`rganib, uni o`zbek tliga yaqinlashtirish, moslashtirish haqidagi “Aruz vaznini o`rganish masalasiga doir” nomli maqolasini yaratadi. Bu judayam qimmatli ma`lumot hisoblanadi.

Bundan tashqari olim folklor namunalarini to`plashda ham jonbozlik ko`rsatib, qator ertaklar, doston va afsonalar, latifa va xalq qo`shiqlarini to`playdi. Satira va yumor bilan jiddiy shug`ullanib, “O`zbek xalq og`zaki ijodida satira va yumor” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi va shu mavzuda monografiya yaratadi. U to`plagan xalq og`zaki ijodi namunalari “O`zbek xalq ijodi” ko`p jildligining 1965-yilda “Latifalar” to`plamida, 1967-yilda “Gulyor” xalq termalarida chop etiladi. Shuningdek, qator olimlar, T.Mirzayev, O.Sobirov, K.Imomovlar bilan birgalikda xalq ijodiyoti namunalarini sayqallab yig`ib, darslik yaratdilar. Bu darslik “O`zbek xalq og`zaki poetik ijodi” deb nomlanib, hozirgacha Oliy ta`lim muassasalarida darslik sifatida foydalanib kelinadi. Olim o`zbek xalq dostonlarining poetikasi, variantlari va lokal xususiyatlari, dostonchilik ananalarining saqlanishi va etakchi baxshilarining badiiy mahorati, dostonlarda turkumlilik, bolalar folklorining o`ziga xos tabiati va janrlar tarkibi, mehnat qo`shiqlarining badiiyati, mifologiya va boshqa mavzularda yirik tadqiqotlarni yaratdi.

Biz olimning faqatgina ilmiy ijodining bir qirrasiga to`xtaldik xolos. Ijodkorning shoirlik, publisistik va dramaturgik mahorati hali aytilgani yo`q. Ijodkorning bu qirrasini o`zi bir doston.

Ijodkorning bu mehnatlari samarasiz qolmadi. Uning ijodi munosib baholanib, 1973-yilda birinchi professor unvoniga, 1974-yilda “O`zbekistonda xizmat

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O’RGANILISHI MASALALARI” mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

ko’rsatgan o’qituvchi” unvonlari berildi. Hoshimjon Razzoqovning nomi O’zbekiston Maorif vazirligining “Mehnat shuhrati” kitobiga 100-raqam bilan muhrlanib qo’yilgan [4.12].

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, Hoshimjon Razzoqov chinakam serqirra ijodkor. Uning yaratgan asarlari, chop ettirgan ilmiy materiallari adabiyotshunoslik uchun muhim manba bo’lib xizmat qilib kelmo qda.

Biz uning ilmiy va ijodiy merosini o’rganish orqali adabiyotshunoslikning rivojiga oz bo’lsa-da o’z hissamizni qo’shamiz, degan umiddamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O`zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o`rganish va targ`ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo`llagan tabrigi. // Xalq so`zi. – T., 2018y. 8 avgust.
2. Qamchibek Kenja bilan suhbat // “Kitob dunyosi” gazetasi, 07.24.2014y.
3. Mahmudov A. Andijon san’ati fidoyilari // T.: Akademnashr, 2018
4. Abdullayeva D. // Hoshimjon Razzoqov hayoti va ijodi. Andijon, 2023.